

**ВЕHBUDIY VA “NASHRIYOTI BEHBUDIYA”NING YOSHLAR  
TARBIYASIDAGI AHAMIYATI  
БЕХБУДИЯ И ЗНАЧЕНИЕ “НАШРИЁТИ БЕХБУДИЯ” В ОБРАЗОВАНИИ  
МОЛОДЕЖИ  
ВЕHBUDIYA AND THE IMPORTANCE OF “NASHRIYOTI BEHBUDIYA”  
IN YOUTH EDUCATION**

*Mirzoyeva Nigora  
Shavkatjonovna<sup>1</sup>*

*Hakimova  
Marjona  
Iskandarzoda<sup>2</sup>*

*Mirzoyeva Nigora  
Shavkatjonovna*

*O’zbekiston-  
Finlandiya  
pedagogika instituti*

*Pedagogika  
kafedrasi  
o’qituvchisi*

*[n\\_mirzoyeva@gmail.com](mailto:n_mirzoyeva@gmail.com)*

*Hakimova Marjona  
Iskandarzoda*

*O’zbekiston-  
Finlandiya  
pedagogika instituti*

*Boshlang’ich ta’lim  
yo’nalishi talabasi*

*[n\\_mirzoyeva@gmail.com](mailto:n_mirzoyeva@gmail.com)*

*1.2- O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Samarqand, O’zbekiston*

**Annotation.** Ushbu maqolada Mahmudxo’ja Behbudiya jadidchilik

harakatining yirik namoyandası, o’lka jadidchilarining yetakchisi ekanligi, Behbudiyning pedagogika, jurnalistika, matbuotchilik, noshirlilik, siyosat, tijorat va boshqa bir qator ishlar bilan samarali faoliyat olib borganligi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Behbudiya yangi o’zbek adabiyotining shakllanishi va rivojiga ham o’z hissasini qo’shganligi va ma’rifatparvarning faoliyati, jadid maktablari, “Behbudiya kutubxonasi”, “Nashriyoti Behbudiya” hamda bir qator masalalar haqida qisqacha ma’lumot keltirilgan.

**Kalit so’zlar.** Jadid, jadid maktablari, “Behbudiya kutubxonasi”, “Nashriyoti Behbudiya”, matbuot, noshirlilik, tijorat.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается, что Махмудходжа Бехбуди является крупным представителем джадидистского движения, лидером джадидистов страны, что Бехбуди был эффективным в педагогике, публицистике, публицистике, издательском деле, политике, коммерции и ряде других видов деятельности. . Также представлен вклад Бехбуди в становление и развитие новой узбекской литературы и деятельность просветителя, современных школ, “Библиотеки Бехбудия”, “Издательства Бехбудия” и ряда других вопросов.

**Ключевые слова.** Джадид, джадидские школы, “Библиотека Бехбудия”, “Издательство Бехбудия”, пресса, издательское дело, коммерция.

**Annotation.** In this article, it is considered that Mahmudhoja Behbudi is a great representative of the jadidist movement, the leader of the country’s jadidists, that Behbudi was effective in pedagogy, journalism, journalism, publishing, politics, commerce and a number of other activities. Behbudi’s contribution to the formation and development of new Uzbek literature and the activities of the enlightener, modern schools, “Behbudiya library”, “Behbudiya Publishing House” and a number of other issues are also presented.

**Key words.** Jadid, Jadid schools, “Behbudiya Library”, “Behbudiya Publishing House”, press, publishing, commerce.

*Umuman biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o’rganishimiz kerak. Bu ma’naviy xazinani qancha ko’p o’rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko’p savollarga to’g’ri javob topamiz. Bu bebahо boylikni qancha faol targ’ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi.*

**Shavkat Mirziyoyev**

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan Vatanimiz ozodligi va xalqimiz baxt-

saodati yo‘lida jonini fido qilgan jadid bobolarimizning ilmiy-ma’rifiy, adabiy-badiiy merosi biz uchun beqiyos ahamiyat kasb etishi, bu bebaho boylikni faol targ‘ib etish xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning bugungi tinch va erkin hayot qadrini anglab yetishida muhim o‘rin egallashi bir necha bora ta’kidlangan.

Darhaqiqat, xalqimizni mamlakat ravnaqi yo‘lida birlashtirish, qalblarni uyg‘otish, dunyo xaritasida har tomonlama rivoj topgan “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishni ko‘zlagan Uchinchi Renessans g‘oyasining ildizi aslida ma’rifatparvar jadidlar faoliyatiga borib taqaladi. Ular butun umrlarini milliy uyg‘onish g‘oyasiga bag‘ishlab, o‘lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g‘aflat botqog‘idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdganlar.

Yorqin ma’rifatparvarlardan biri hisoblanmish, Mahmudxo‘ja Behbudiy ham butun faoliyatini millatni ilm-ma’rifatli qilishga qaratgan, buning uchun u “usuli jadid” maktablari tarmog‘ini kengaytirish, ular uchun o‘quv dastur va darsliklar yaratish, o‘quvchilarni o‘quv qurollari bilan ta’minalash, kutubxonalar, nashriyotlar tashkil qilish ishlari bilan muttasil shug‘ullangan. 1904-1909-yillarda u o‘zbek va tojik tillarida “Risolayi asbobi savod”, “Muntaxabi jug‘rofiyayi umumiy” (Qisqacha umumiy geografiya), “Kitobat ul-atfol” (Bolalar maktublari), “Muxtasar tarixi islam” (Islamning qisqacha tarixi), “Madxali jug‘rofiyayi umroniy” (Aholi geografiyasiga kirish), “Muxtasar jug‘rofiyayi Rusiy” (Rossiyaning qisqacha geografiyasi) kabi darsliklarni yaratdi.

Turkiston jadidlari orasida katta shuhrat qozongan va ularning ko‘zga ko‘ringan vakili, adabiy tanqidchilik maktabining shakllanishida katta xizmat qilgan Vadud Mahmudning ta’rificha “Mahmudxo‘janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o‘run olishga munosib bir otdir”. Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda jadidchilik harakatining rahbari sifatida xalq uchun manfaati bor amaliy ishlar bilan qizg‘in shug‘ullandi: jadid maktablari tashkil etishda bosh-qosh bo‘lib, teatr san‘atiga asos solgan, gazeta-jurnal chop qilib, nashriyot hamda kutubxona tashkil etgan. U siyosiy, ma’rifiy-madaniy, iqtisodiy-ijtimoiy sohalarda birdek xizmat qilib kelgan.

Ayniqsa, “Behbudiy kutubxonasi” Behbudiyning millat taraqqiysi uchun boshlab bergen xayrli ishlari qatorida turadi. Samarqanddagi dastlabki mahalliy gazeta va milliy jurnalning noshiri, birinchi milliy drama muallifi, Turkistondagi usuli jadid maktablarining, B.Qosimov ta’kidlaganidek, “birinchi nazariyotchi va amaliyotchisi”, eng birinchi darsliklar muallifi bo‘lgan Behbudiy kutubxona tashkil qilishda ham birinchilardan bo‘ldi.

Ushbu kutubxona Samarqand gubernatoridan rasman ruxsat olinib, 1908-yil 11-sentabr kuni shaharning “Yangi rasta” qismida ochilgan. Lekin kutubxona ochilishi xabari biroz avval paydo bo‘lgan edi. Bu haqda “Turkiston viloyatining gazeti” xabar qilgan edi. Kutubxonaning barcha rasmiy masalalari 27 bobdan iborat dasturda belgilab berildi (Turkiston viloyatining gazeti, 1908-yil, 27-son). O‘scha davrda kutubxonaga a’zolik badali yiliga 3 so‘m miqdorda tayinlandi. Kutubxonaning asosiy maqsadi mahalliy musulmon yoshlari, madrasa talabalarining zamonaviy ilmlarga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirildi.

Kutubxonani yo‘lga qo‘yishda unga safdoshlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va muallim Abdulqodir Shukuriylar ko‘maklashdi. Kutubxona qisqa vaqt ichida juda qimmatli ilmiy, mahalliy va xorijiy matbuot nashrlaridan iborat katta fondga ega bo‘ldi. Jumladan, kutubxonada turli davlatlarda nashr qilingan diniy hamda dunyoviy kitoblar, suratli jurnal va gazetalar, ensiklopediya, lug‘atlar, xarita va atlaslardan o‘qib foydalansa bo‘lar edi.

Dastlab 200, keyinchalik 225 jild kitobga ega kutubxona kun davomida 14 soat ishlab turgan. Kutubxona ochilganiga 7 oy bo‘lganda uning a’zolari soni 125 nafarga yetdi va u o‘tgan davr mobaynida 2000ga yaqin kitobxonning ma’naviy ehtiyojini qondirgan edi. Dastlabki ikki yil kutubxona ishlari uchun xayrli kechdi. Kutubxonaga a’zo va yon bosuvchi ko‘ngillilar yetarlicha topilib turdi. Lekin 1910-yilga kelib uning faoliyati susaya boshladi. Buning bir qancha sabablari bor edi. Xususan, jadid-qadim ixtilofi va qadimchi ulamolarning jadidlarga qarshi uydirma mish-mishlari bunga asosiy sabab bo‘ldi. Ilmdan bebahra va bu ishlarning fahmiga tushunib yetmagan avom esa uning zavoli uchun kurashdi. “Turkiston viloyatining gazeti” ning 1910-yil 16-sonida berilgan xabarga ko‘ra, ulamo kutubxonani kofirxona, zararli joy deb e’lon qilingan va ota-onalarga farzandlarini unday joylarga yubormasliklari to‘g‘risida fatvo chiqargan edi.

1912-yilda kelib esa kutubxona butunlay nochor ahvolga kelib qoldi. Moliyaviy muammo kun tartibiga chiqdi. Shunday bo‘lsa-da, kutubxona Behbudiyning harakatlari tufayli faoliyatini davom ettirib turdi. 1914-yilning boshida kutubxona faoliyat ko‘rsatishga qiynalib qoldi. Ushbu yilning yillik yig‘ilishida kutubxonaning 15 a’zosi ishtirokida kutubxonani saqlab qolish va uning moliyaviy muamosini hal etish uchun spektakl qo‘yishga qaror qilindi. Lekin bu tadbirning kutubxonani jonlantirish uchun foydasi bo‘lmadi. Behbudiylar uzoq yillar xalqqa xizmat qildirmoqchi bo‘lgan milliy kutubxonasingina taqdiriga nuqta qo‘yildi. Shundan so‘ng Behbudiylar kutubxonani o‘z hovlisiga ko‘chirdi va unga “Behbudiya kutubxonasi” deb nom berdi. Shu munosabat bilan Behbudiylar Rossiya va xorijda nashr etilgan kitob va matbuot nashrlarini arzon narxda sotilishini ham e’lon qildi. “Oyna” ning ketma-ket o‘nga yaqin sonida sotiladigan kitoblar nomi va narxi ro‘yxat qilib berib borildi. Ularni ko‘zdan kechira turib sobiq kutubxonaning qanday kitoblarga ega bo‘lganini bilish mumkin. Xususan, ushbu ro‘yxatda “Tarixi Eron”, “Tarixi madaniyat”, “Usmonli rus safari”, “Yaman sayohatnomasi”, “Tarixi asotir”, “Muxtaras tarixi madaniyat”, “Hindiston sayohatnomasi”, “Ilmi hayvonot”, “Latoyifi Xo‘ja Nasriddin”, “Shohnomayi mumtozi oliy”, “Nizomiy kuliyoti”, “Bedil kulliyoti”, “Masnaviyi sharif”, “Haqiqatnama” kabi kitoblar hamda “Siroj ul-axbor”(Afg‘oniston), “Qadimlar dunyosi” (Qozon), “Chehranamo” (Misr), “Hablul matin” (Kalkutta), “Tarjumon” (Bog‘chasarov), “Mulla Nasriddin” (Boku), “Yulduz” (Qozon), “Sho‘ro” (Orenburg) singari gazeta va jurnallarni ko‘rish mumkin.

Behbudiyning ham nashr ishlari bilan shug‘ullanganligini tasdiqlovchi ma’lumotlar ko‘p bo‘lsa-da, uning nashriyoti haqida faktlar yetarlicha emas.

Ushbu nashriyot o‘z bosmaxonasiga ega bo‘lmay, balki kutubxona tarkibida faoliyat yuritgan va Behbudiylar o‘zi nashrga tayyorlagan kitoblarni Samarqanddagagi

bosmaxonalarda chop ettirgan. Sababi bir paytda ham kutubxona, ham bosmaxona faoliyatini mablag‘ va uskunalar bilan ta’minlash boshqacha sharoitni talab qilar edi.

“Nashriyoti Behbudiya”da ilk bor Behbudiyning turkiy tilda tuzgan Turkiston, Buxoro, Xiva xaritasi, darslik qo‘llanmalari, “Padarkush” dramasi va Fitratning “Sayyohi hindiy” asari ruschaga o‘girilib chop etilgan. Garchi bu kitoblar narxi belgilab qo‘yilgan bo‘lsa-da, Behbudiylar “ularni o‘z masorifi bilan bosib tarqatdi”. Behbudiylar o‘z rahnamoligida ochgan maktablari uchun darslik yozgan, nashr ettirgan va ularni “tekinga tarqatgan” yagona muallim edi.

Kutubxonalar tarkibiga kiruvchi nashriyotlar faoliyati bugungi kunda ham davom etayotgan jarayondir. “Behbudiya kutubxonasi” hamda “Nashriyoti Behbudiya” ham birgalikda xalqqa xizmat qilagan, Behbudiyning jadid qiyofasini yoritib turuvchi ziyo maskanlari edi.

“Behbudiya kutubxonasi” va “Nashriyoti Behbudiya” 1908-1915-yillar orasida faoliyat olib bordi. Kutubxona fondidagi noyob asarlar va qo‘llanmalar ko‘pchilik kitobxonlar ehtiyojini qondirdi. “Nashriyoti Behbudiya”ning sa’y-harakatlari bilan chop etilgan xarita va darsliklar mакtab muallim va shogirdlari uchun ko‘p yillar xizmat qildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiylar butun Rossiya imperiyasidagi ilg‘or, hur fikrli, islohotchi musulmonlar bilan muntazam aloqada bo‘lib turgan. Ayniqsa, u qrim-tatar ma’rifatparvari, Rossiya musulmonlari orasida yoyilgan jadidchilik – yangilanish harakatining asoschisi Ismoil Gasprinskiyning sodiq muxlislaridan, shogirdlaridan biri desak, xato bo‘lmas. Chunki uning fikrlari, qarashlari ko‘pda Gasprinskiy tutgan yo‘lga, olib brogan ishlariga muvofiq tushgan. Bu holda Behbudiyning o‘zi ham maqolalarida tilga oladi. Nemis olimasi professor Ingeborg Baldauf ta’kidlashicha, Behbudiylar Gasprinskiyning “musulmon jamiyati ijтиҳод eshiklarini lang olib, yaxshilik tomon yuz tutadi, hozirda hukm surib turgan bid’at, xurofotdan xalos bo‘ladi” degan fikrlarini jon-dildan ma’qullar, o‘zi ham shu fikrda edi.

Behbudiylar Turkiston aholisini ma’rifatli, bilimli qilishda juda sermazmun, sermahsul faoliyat olib bordi. Yana Hoji Muin so‘zlari bilan aytadigan bo‘lsak, “Behbudiylar afandi... qo‘lig‘a qalam olib, Turkistonning yangilik va yuksalishig‘a hormay-tolmay, talashib-tortishib xizmat qilg‘on birdan-bir muharrir va yo‘lboshchi” edi. Uning ushbu faoliyatining eng muhim bir qismini jurnalistlik, gazetachilik tashkil qiladi. Behbudiylar jami 18 ta vaqtli matbuot nashrida faol qatnashgan va jami maqolalarining soni 200 ga yaqin bo‘lgan. Behbudiylar maqolalarining aksariyati Turkiston mакtab-madrasalarining islohi, bu borada qilinayotgan sa’y-harakatlar haqida edi. “Behbudiylar maqolalarining ko‘bisi muhim mavzularda yozilg‘on bo‘lub, hanuz eskirgan emas va bu kunlarda ham biz uchun dasturamal bo‘laturg‘on foydalik so‘zlardur”, deb yozadi o‘z davrida Hoji Muin. Masalan, uning “Tarjumon”dagi “Turkistonda mакtab lisoni” (1909-yil, 14-, 21-sonlar) maqolasasi” ... mакtab lisoni tahsilasi bobinda bahs... “bo‘lib, bunda Behbudiylar Turkistondagi maktablarda tehsil bit tilli emas, bir necha tilli bo‘lishini yoqlab chiqqan edi. Xalqni bu kabi jarayonlarga qarata harakatga targ‘ib etish bu

davrda oson emas edi. Faqat ma'rifatparvarlarga bunday qiyin vaziyatda shu yo'lda harakat qilishgan.

Jadidlar ana shunday og'ir vaziyatda xalqqa, millatga ziyo tarqatishga harakat qilagan shaxslardan edilar. O'zingiz eslang, bir vaqtlar, kommunistik mafkura zamonida milliy urf-odatlar, an'analarni rivojlantirish u yodqa tursin, hatto janozaga boorish ham mumkun emas edi. Qarang, qanday og'ir zamon edi! Bu haqiqatni barchamiz bolalarimizga yoshlikdan to'g'ri tushuntirib bersak, tarix bilan, haqiqat bilan qurollanib olsak, hayotimizni shunday to'g'ri yo'lga qo'yamiz-ki, uning aniq manzillari barchaga ayon bo'ladi, butun xalqimizga kuch g'ayrat bag'ishlab turadi. Yosh avlodning maktabdagagi tarbiyasiga ham alohida e'tibor berish kerakdir, degan g'oyaga hamma jadidlar alohida e'tibor bergenlar. Chunki, jadidlar yosh avlodni ozodlik, istiqlol, mustaqillik uchun kurashganlar, Vatanning kelajagi, ravnaqi deb qaraydilar. Shuning uchun ham ular bolalar va Vatan masalasiga alohida e'tibor beradilar. Shuni ta'kidlash kerakki, jadidlar o'z mактаблari orqali yosh avlodga faqat milliy ruhinigina emas, balki umuminsoniy qadriyat, baynalmillallik, Vatan ravnaqi, go'zalligini ham singdirishga harakat qilganlar. Ular bolalar, yoshlari tarbiyasi uchun birgina maktab emas, balki ularning o'zlar mustaqil ravishda zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq, millat va Vatanning ahvoldidan, kundalik hayotdan ogoh bo'lmoq kerakligini bilishlari kerakligini tadbiq etganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlaringin milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy siyosiya, madaniy ma'rifiy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, madaniy ma'rifiy saviyasini yuksaltirishga chorlaydi. Jahan taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish istagi ulardan Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, ular yurtni obod, farovon etishlariga ishonganlar. Chunki jadidlarning o'zlar ham yosh bo'lganliklari uchun mahalliy yoshlarning muammolari, fikr g'oyalari turli voqealarga munosabati ularga juda yaqin va tushunarli edi. Jadidlar faoliyatida madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilish, yoshlarni, butun xalq ommasini shunga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qoldi. Har qanday og'ir sharoitda ular o'z qarashlarini o'zgartirmadilar. Jadidlarning ijtimoiy siyosiya, madaniy ma'naviy faoliyatlarini tahlil qilib va ularning asr boshidagi g'oyaviy qarashlarini kelib chiqqan holda shuni aytishimiz o'rinliki, jadidlar Turkiston xalqlarini savodsizlik, qullik, qashshoqlikdan, chor hukumati mustamlakachiligidan qutqarishga bel bog'laganlar va shu yo'lda yoshlari asosiy kuch bo'lganligini tushunib, ularning ong saviyasini oshirish uchun ko'p sa'y-harakatlar qilganlar. Yoshlari manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi mustaqil O'zbekistonda namoyon bo'lib turmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy [Matn]: risola/Z.Abdirashidov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 156 b.
2. Alimova D., Rashidova D. Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri. – Toshkent: Akademiya, 1999.
3. Sharipov R. Turkiston jadidchilik harakati tarixidan. - Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
4. Qosimov B. Mahmudjo‘ja Behbudiy (Tanlangan asarlar). – Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
5. Xayrullayev M. Ma’naviyat yulduzлari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001.
6. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi O‘zbekistonning yangi tarixi Markazi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti, 1999.
7. «Oyna» jurnali, 1914 -yil , 29-son, 550-553-betlar.
8. Пясковский А. Революция 1905-1907 годов в Ташкенте. М., 1958
9. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. - Toshkent: Ma’naviyat, 2004.
10. D. Alimova, D. Rashidova. Maxmudxodja Bexbudiy i yego istoricheskiye vozreniya. –T. , «Ma’naviyat», 1998.